

XITOIY TILIDA NATIJA TO‘LIQLOVCHILARINING SEMANTIK TAHLILI

Tilovov Ozod Zaironovich

Samarqand davlat chet tillar instituti

Yaqin sharq tillari kafdrasi Katta o‘qituvchisi

Tel: +998932272767

ANNOTATSIYA

Til o‘rganish nuqtai nazaridan, xitoy tilida 补语 (to‘liqlovchi)ni o‘rganish eng muhim masala hisoblanadi. Chunki xitoy tilini o‘rganayotgan ko‘pchilik chet ellik talabalar uchun 补语 (to‘liqlovchi) bu – notanish gap bo‘lagidir. Talabalar odatda “ega”, “kesim”, “aniqlovchi”, “hol” kabi gap bo‘laklarini osinlik bilan tushunib olishadi, chunki bunday gap bo‘laklari deyarli har bir tilda mavjud. Lekin xitoy tilida mavjud bo‘lgan gap bo‘lagi 补语 (to‘liqlovchi) deyarli boshqa tilda uchramaganligi sababli, talabalar tomonidan juda qiyinchilik bilan o‘zlashtiriladi. 补语 To‘liqlovchi — sifat yoki fe‘ldan keyin qo‘llanilib, kesimga qo‘shimcha ma’no beradi. To‘ldiruvchi ham fe‘ldan keyin qo‘llanilsada, lekin to‘ldiruvchi va 补语 to‘liqluvchining farqi aniq: to‘ldiruvchi odatda harakatda ishtirok etayotgan yoki harakatga aloqador obyektни ifodalab keladi, shuning uchun ularning aksariyati otlashgan hisoblanadi; yuqorida aytib o‘tganimizdek, odatda 补语 to‘liqluvchi fe‘l kesimlashgan bo‘lib, asosiysi harakatga aloqador kishi yoki narsa-hodisani to‘liqlab, qo‘shimcha ma’no berib keladi.

Kalit so‘zlar: *To‘liqlovch, natia to‘liqlovchi, yo‘nalish to‘liqlovchi, potensial, imkoniyat to‘liqlovchi, daraja to‘liqlovchi, 见, 住, 着.*

АННОТАЦИЯ

С точки зрения изучения языка наиболее важным вопросом является изучение 补语 (дополнений) в китайском языке. Для многих иностранных студентов, изучающих китайский язык, 补语 (дополнение) является незнакомой частью предложения. Обычно учащиеся легко усваивают такие части предложения, как «подлежащее», «сказуемое», «определитель», «наречия», поскольку они существуют почти во всех языках. Однако 补语 (дополнение) настолько сложен для изучения студентами, что его практически невозможно выучить. найти дополнения на любых других языках, кроме китайского. 补语 (дополнение) используется после прилагательного или глагола, чтобы сделать сказуемое более значимым. В китайском объекте также используется после глагола, но есть разница между объектом и 补语 (дополнением): объект обычно представляет собой что-то или кого-то, что

участвует в действии или связано с ним, поэтому в большинстве случаев они используются как существительное. предикативный; Между тем 补语 (дополнение) используется как глагол-предикатив, который завершает человека или вещь, участвующую в действии, и придает сказуемому дополнительное значение.

Ключевые слова: Комплимент, Комплимент результата, Комплимент направления, Дополнение потенциальности, Комплимент степени, 见, 住, 着.

ABSTRACT

From the point of view of language learning, the most important issue is the study of 补语 (complements) in Chinese. For many foreign students who are studying the Chinese Language, 补语 (complement) is an unfamiliar part of the sentence. Usually students easily learn parts of sentence such as "subject", "predicate", "determiner", "adverbial modifier" because of their existence in almost every language. However, 补语 (complement) is so complicated for students to learn since it is almost impossible to find complements in any other languages except Chinese. 补语 (complement) is used after an adjective or verb to make the predicate more meaningful. In Chinese object is also used after verb, but there is a difference between object and 补语 (complement): the object usually represents something or someone that is involved in or related to the action, therefore, in most cases they are used as a noun predicative; meanwhile 补语 (complement) is used as a verb predicative which completes the person or thing involved in the action, and gives additional meaning to the predicate.

Keywords: Compliment, Compliment of result, Compliment of direction, Complement of potentiality, Compliment of degree, 见, 住, 着.

KIRISH

Xitoy tili o'zining morfologik xususiyatlariga ko'ra murakkab tillardan biri hisoblanadi. Ushbu tilda oltita so'z turkumi farqlanadi. Bosh bo'laklar 主语 (zhuyu) ega va 谓语 (weiyu) kesim, ikkinchi darajali bo'laklar: 定语 (dingyu) aniqlovchi, 宾语 (binyu) to'ldiruvchi, 状语 (zhuangyu) hol va 补语 (buyu) to'liqlovchi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

补语 To'liqlovchi — sifat yoki fe'ldan keyin qo'llanilib, kesimga qo'shimcha ma'no beradi. To'liqlovchilarning ishlatilishida o'ziga xoslik mavjud bo'lib, ular 7 guruhga bo'lib o'rganiladi [2, 39 b]. To'liqlovchilarning tuzilishida umumiy jihatlari bor, ya'ni ularning ko'pchiligi ikki xil ifodani o'z ichiga oladi. Masalan: “我喝醉了”

- “我喝（酒）”，“我醉了”ni; “他打破了一个杯子” - “他打（了杯子）”，“杯子破了” ni; “老师走进教室” - “老师走”，“老师进教室”；“我打开窗户” - “我打窗户”，“窗户开”；“他高兴得跳起来了” - “他高兴”，“他跳起来了”；“他气得妈妈直哭” - “他气妈妈”，“妈妈直哭”ni kabi ikki xil ifodani o‘z ichiga oladi. Semantik munosabatlar nuqtai nazaridan, kesim ikki xil ifodani o‘z ichiga olganda, oldidagi fe’l yoki sifat odatda sababni, orqadagi to‘ldiruvchi esa natijani bildiradi. Masalan: “他喝（酒）”-sabab, “醉了”-natija; “老师走”-sabab, “进教室”-natija; “他高兴”-sabab, “跳了起来”-natija.

Boshqa tillarda xitoy tilida mavjud bo‘lgan 补语 to‘liqluvchiga o‘xshagan til hodisasi juda kam uchraydi. Xitoy tilida 补语 to‘liqluvchi qatnashgan gaplar, boshqa tillarda boshqacha bir usullar bilan ifodalanadi, masalan ikkita gap bilan ifodalanishi mumkin. Shuning uchun chet elliklar xitoy tilidagi 补语 to‘liqluvchini qiyinchilik bilan o‘zlashtiradigan grammatika hisoblanadi.

To‘ldiruvchi ham fe’ldan keyin qo‘llanilsada, lekin to‘ldiruvchi va 补语 to‘liqluvchining farqi aniq: to‘ldiruvchi odatda harakatda ishtirok etayotgan yoki harakatga aloqador obyektini ifodalab keladi, shuning uchun ularning aksariyati otlashgan hisoblanadi; yuqorida aytib o‘tganimizdek, odatda 补语 to‘liqluvchi fe’l kesimlashgan bo‘lib, asosiysi harakatga aloqador kishi yoki narsa-hodisani to‘liqlab, qo‘shimcha ma’no berib keladi. Shuning uchun miqdor 补语 (to‘liqluvchi) lardan tashqari, aksariyati otlashmagan hisoblanadi [3, 484 b]. Ma’no va tuzilish xususiyatiga ko‘ra, 补语 (to‘liqluvchi) quyidagi yetti guruhga bo‘linadi: 1. Natija to‘liqlovchi; 2. Yo‘nalish to‘liqlovchi; 3. Potensial, imkoniyat to‘liqlovchi; 4. Modal to‘liqlovchi; 5. Daraja to‘liqlovchi; 6. Miqdor to‘liqlovchi; 7. Predlog birikmali to‘liqlovchi.

Umuman olganda, 补语 kompliment (to‘liqluvchi)lar og‘zaki va hikoya uslublarida ko‘proq, maqola va yozma matnlarda kamroq uchraydi.

Natija to‘liqlovchi (结果补语). Natija to‘liqlovchi (结果补语) bu harakat va holatning natijasini ifodalab keladi va harakatlanuvchi yoki harakatni qabul qiluvchining holatida o‘zgarish sodir bo‘lishiga sabab bo‘ladi [3, 485 b]. Masalan: “打破了一个杯子”, bu yerda harakat “打” ning ta’siri ostida, harakatni qabul qiluvchi “杯子” da o‘zgarish sodir bo‘ldi ya’ni sindi. Ba’zi bir natija to‘liqlovchilar harakatga baho berib, belgilab kelishini ifodalaydi. Masalan: “作业做完了”. Ushbu gapda natija to‘liqlovchi “完”ning vazifasi harakatga baho berib, belgilab kelganligi ifodalangan. Xitoy tilida harakat yoki holat tufayli ma’lum bir natija yuzaga kelgan

gapni tasvirlashda, albatta natija to‘liqlovchi qo‘llaniladi. Keling talabalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan gapdagi xatolarni ko‘rib chiqamiz:

*医生们紧张地工作，希望他们一定会救他。

Bu yerda so‘zlovchi shifokorga to‘liq ishongan holda, uning “hayotini saqlab qolishi”ga ishonchi komilligini ifodalamoqchi. Shuning uchun quyidagicha o‘zgartirish kerak bo‘ladi.

医生们紧张地工作，希望他们一定会救活他。

Yana boshqa bir misolni qaraymiz:

*虽然今天学的生词很多，但李凤很快就全记了。

Bu gapda aytilmoqchi bo‘lgan narsa “李凤记生词” bu harakat emas, balki harakatda allaqachon natija bor ya’ni 记住了生词. Shuning uchun ushbu gapda fe‘ldan keyin natija to‘liqlovchi “住” qo‘shilishi talab etiladi.

虽然今天学的生词很多，但李凤很快就全记住了。

Diqqat qiling, natija to‘liqlovchi harakatning allaqachon sodir bo‘lganligini yoki holatning ko‘rinishini ifodalab keluvchi dinamik yordamchi so‘z “了” bilan bir xil vazifada qo‘llanilmaydi. Dinamik yordamchi so‘z “了” harakatning sodir bo‘lishini yoki halatning ko‘rinishini ifodalab kelsa, natija to‘liqlovchi harakat ta’sirida yuzaga kelgan ma’lum bir natijani ifodalaydi. Shuning uchun natija to‘liqlovchining o‘rnini “了” bilan almashtirsak, ifodalanayotgan ma’no noaniq bo‘lib qoladi [1, 225 b]. Masalan:

*这本书我到处托人买，今天可买了一本。

Bu yerda so‘zlovchi “买” (sotib olish) harakatining allaqachon sodir bo‘lganligini ifodalamoqchi emas, balki “买” (sotib olish) harakati maqsadga erishganligini, natijaga ega bo‘lganligini ifodalamoqchi. Shuning uchun ushbu gapni quyidagicha o‘zgartirishimiz kerak bo‘ladi:

这本书我到处托人买，今天可买到了一本。

Natija to‘liqlovchining semantik jihati va to‘ldiruvchi bilan qo‘llanilishidagi muommolar.

Semantik jihati bu to‘liqlovchining gapda qaysi komponent bilan semantik jihatdan bog‘langanligiga ishora qiladi.

Natija to‘liqlovchi semantik jihatdan ko‘proq to‘ldiruvchi va ega bilan, qisman predikativ fe‘l bilan aloqador bo‘ladi. To‘liqlovchi ish harakatning qabul qiluvchisiga, eng asosiysi fe‘lning to‘ldiruvchisiga yoki “把” li gapning to‘ldiruvchisiga, “被” li gapning egasi kabilarga ishora qiladi [4, 153 b]. Masalan:

他擦干净桌子，扔掉一个空烟盒和一些碎纸。(他—擦，桌子—干净)

那时你.....在阿勒泰山的雪坡上拖走 一根粗大的木头。(你—拖, 木头—走)

Bundan tashqari “赶走了敌人”, “打破了一个杯子”, “哭倒了长城”, “扔掉了旧衣服”, “记住了三两个字”, “栓牢了绳子”, “打跑了小偷”, “寄走了一封信”, “吓哭了孩子” kabilari ham misol bo‘lishi mumkin. To‘liqlovchining bu turida, agar predikativ fe‘l o‘timli bo‘lsa, yuqoridagi misollardagidek, undan keyin to‘ldiruvchi kelishi mumkin. Ba‘zi fe‘llar o‘timsiz bo‘lib, aslida to‘ldiruvchi olmaydi, lekin natija to‘liqlovchisi bilan ular to‘ldiruvchini ham olishi mumkin. Masalan:

听了他这句话, 大家笑弯了腰, 笑疼了肚子。

为了给你买这双鞋, 我跑断了腿, 可是你还不领情。

Bundan tashqari “跑丢了一双鞋”, “哭红了眼睛”, “说破了嘴皮子”, “睡花眼”, “憋红了脸”, “熬红了眼睛”, “气崩了肚子”, “屋子里坐满了人” kabilarni ham misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin.

Bu turdagi to‘liqlovchilar “把”li gaplarda ham ko‘proq qo‘llaniladi. Masalan:

老农民和东郭先生一起把狼打死了。(老农民和东郭先生—打, 狼—死)

我打算明天就把这笔钱寄走。(我—寄, 钱—走)

Tarkibida natija to‘liqlovchisi bo‘lgan gaplarning tuzilish xususiyatlari

Natija to‘liqlovchisining inkor shakli

Natija to‘liqlovchisi harakat yoki o‘zgarishning natijasi bor yoki yo‘qligini ifodalaganligi uchun, uning inkor shaklida odatda “没” qo‘llaniladi. Inkor natija to‘liqlovchi bo‘lgan vaqtda, “没” predikativ fe‘l yoki sifatdan oldin qo‘llaniladi. “没+fe‘l+natija to‘liqlovchi” – bu formula ish harakatining biron bir natijaga erishmaganligini ifodalaydi. Masalan:

1. 个故事我没听懂。2. 还有一次, 裁判员没看清楚, 判错了。

Bu ikki gapning ma‘nosi “eshitdi”, lekin “tushunmadi”; “ko‘rdi”, lekin “tushunarsiz, aniqmas”.

Faqatgina ko‘zlangan sharoitda, natija to‘liqlovchi “不” ni olib inkor ma‘noni ifodalaydi. Masalan:

1. 我不做完练习不去游泳。2. 不打倒敌人, 我们决不停止战斗。

Natijali to‘liqlovchi bilan predikativ fe‘l yoki sifat orasiga boshqa komponent qo‘shib bo‘lmaydi. To‘liqlovchidan keyin dinamik yordamchi so‘zlar “了”, “过” qo‘llanilishi mumkin, lekin “着” qo‘llanilmaydi. Natija to‘liqlovchidan (hamda “了”, “过”) keyin to‘ldiruvchi olishi mumkin. Masalan:

他从来没打断过别人的发言。

To‘ldiruvchi bilan bog‘liq muommolar

Ba'zi bir gaplarda, natija to'liqllovchidan keyin to'ldiruvchi keladi. Bu to'ldiruvchini fe'ning to'ldiruvchisi emas, balki fe'l to'liqllovchi birikmaning to'ldiruvchisi sifatida qarash kerak. Masalan:

我看见了一个人。

Ba'zi bir o'timsiz fe'llar to'ldiruvchi olmasada, lekin natija to'liqllovchi bilan birga kelganda to'ldiruvchi oladi. Masalan:

1. 他跑丢了一只鞋。 2. 这件事听了叫人笑破了肚皮。 3. 小姑娘哭红了眼睛。

Natija to'liqllovchi vazifasini bajaruvchi so'zlar – sifat va fe'l

Faqatgina sifat va fe'llar natija to'liqllovchisi vazifasida kelishi mumkin, Natija to'liqllovchi og'zaki nutqda keng tarqalgan grammatik hodisa bo'lganligi sababli, og'zaki nutqda keng qo'llaniladigan bir bo'g'inli sifatlar odatda natija to'ldiruvchisi sifatida, og'zaki nutqda qo'sh bo'g'inli sifatlar ham natija to'ldiruvchisi sifatida ishlatilishi mumkin [5, 275 b]. Fe'l ham natija to'liqllovchi vazifasida kelishi mumkin, eng ko'p qo'llaniladiganlari quyidagilar: 见、成、懂、走、跑、哭、笑、往、掉、着、倒、翻、倒、作、为、死、透、丢、到、在、给 kabilar. Bu fe'llar aniq faol harakatlarni ifodalamaydi (“走” va “跑” natija to'liqllovchi vazifasida kelganda “离开” degan ma'noni beradi). Fe'l natija to'liqllovchi vazifasida kelganda, predikativ fe'l ifodalagan ish harakat haraklanuvchi yoki harakatni qabul qiluvchining passiv harakatiga sabab bo'lishini ifodalaydi. Msalan:

1. 把妹妹气哭了。 2. 我把桌子上的东西碰掉了。 3. 你怎么把他推倒了。

Ushbu gaplarda qo'llanilgan to'liqllovchilar “哭”、“掉”、“倒” passiv harakatni ifodalaydi. Agar ushbu gapda aktiv harakat bo'lgan taqdirda, masalan “由于孩子气妈妈，结果妈妈打了孩子” mazmuni ifodalas, u holda natija to'liqllovchisi qo'llanilmaydi. Masalan;

* 孩子气打妈妈。 * 妈妈气打了孩子。

Ba'zi bir fe'llar to'liqllovchi vazifasida kelganda, uning leksik ma'nosi o'zgaradi. Quyida biz shunday fe'llardan eng ko'p ishlatiladiganlarini keltirib o'tamiz:

“见” ning asl ma'nosi “natijaga ega-看到” ning ma'nosini beradi. “见” to'liqllovchi vazifasida kelganida, ko'pincha sezgi harakat fe'llari “看”, “瞅”, “望”, “听”, “闻” kabilardan keyin qo'llanilib, harakatning natijasini ifodalab keladi [6, 157 b]. Masalan:

1. 孩子们看见我来了，都非常高兴。 2. 这种物体发出的声音太小，我听了半天也没听见。 3. 一进门我就闻见一股香味。

“见” bundan tashqari “遇”, “碰”, “梦” kabi fe'llardan keyin ham qo'llanilib, to'liqlovchi vazifasida keladi. Masalan:

1. 你遇见老王告诉他一声, 今晚在家里等我。2. 我昨天梦见了我的一个老朋友。

“住” ma'lum bir harakat orqali, kimningdir yoki nimaningdir o'rnini stabillashtirishni ifodalaydi [7, 53 b]. Masalan:

1. 他听了我的话立刻站住了。2. 我紧紧握住小王的手。3. 门挡住了面的灯光。4. 咱们可别叫他给吓住啊。5. 这些词语我记住了。

“着” (zháo)

a) harakatning ma'lum bir maqsadga erishganligini ifodalaydi. Ko'pincha og'zaki nutqda qo'llaniladi. Masalan:

1. 你说的那本书我借着了。2. 这个谜语我没猜着。

Bu ma'noda qo'llanilgan “着” ning bo'lishsiz shakli uning oldidan “没” kelganda, kuchli talafuz qilinadi, bo'lishli shakli esa odatda yengil talafuz qilinadi.

b) ba'zi bir fe'llar yoki sifatlardan keyin qo'llanilganda, harakat yoki biron bir holatning shaxs yoki predmetga yomon oqibatlar keltirishini ifodalab keladi. Masalan:

1. 这个小孩儿穿得太少, 冻着了。(chunki “冻” sababli, 病 yomon oqibat kelib chiqishi mumkin) 2. 你们休息一会儿, 小心别累着。(chunki “累” sababli, sog'liq uchun yomon ta'sir qilishi mumkin)

Bu turdagi fe'llar “热着, 捂着, 饿着, 撑着, 烫着, 凉着, 吓着” kabilar bo'lib, “着” har doim yengil talafuz qilinadi.

c) “入睡” (uyquga ketish) ma'nosini ifodalab keladi. Masalan:

他看着看着书, 睡着了。

d) “燃烧” (yonish) ma'nosini ifodalab keladi. Masalan:

我划着了火柴, 点上了灯。

e) “应该, 有资格、有责任” ma'nolarini ifodalab keladi. Masalan:

你不是我的老师, 你管不着!

你也不是我的上级, 批评不着我!

c, d, e larda qo'llanilgan “着” kuchli talafuz qilinadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, natija to'liqlovchilarini o'rgatishda biz bosqichma-bosqich hamda intensivroq mashqlardan ko'proq foydalangan holda o'rgatishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Misollar keltirayotganda, xitoy tilini chet tili sifatida o'rganuvchilar tomonidan tez-

tez qo'llaniladigan, aniq ifodalangan va Xitoyning muloqot odatlariga mos keladigan ba'zi misollarni tanlash lozim bo'ladi. Faqat shu yo'l bilan biz xitoy tili grammatikasini chet tili sifatida samaraliroq o'rgatishimiz mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. 陆庆和 《实用对外汉语教学语法》，北京大学出版社，北京-2006 年。
2. 现代汉语实用语法分析。清华大学出版社，北京-2012 年。
3. 实用现代汉语语法。商务印书馆，北京-2004 年。
4. 宾语和补语。黑龙江人民出版社，哈尔滨-1985 年。
5. 外国人实用汉语语法。北京语言大学出版社，北京-2008 年。
6. 汉语语法教程。北京语言大学出版社，北京-2002 年。
7. 汉语语法百项讲练(初中级)。北京语言大学出版社，北京-2011 年。
8. 杨玉玲《现代汉语语法答问》，北京 大学出版社，北京-2011 年。
9. Tilovov, O. Z., & Abiden Qizi, A. (2022). XITOIY TILINI CHET TILI SIFATIDA O 'RGATISHDA VAQT-MIQDOR TOLIQLOVCHI (时量补语) LARINI XATO GAPLAR ORQALI TAHLIL QILISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 420-429.
10. Zairjonovich, T. O. (2023). XITOIY TILINI O 'RGANUVCHI TALABALAR TOMONIDAN NATIJA TO 'LIQLOVCHILARINI O'RGANISH JARAYONIDAGI DUCH KELINAYOTGAN MUOMMOLARI VA ULARNING YECHIMI. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 1(5).
11. <https://www.researchgate.net/publication/367809540> The Semantic Aspect of the Result Compliment in Chinese